

FARG'ONA VODIYSINING O'SIMLIKLAR OLAMI VA UNI MUHOFAZA QILISH

Xamidov G'ulomjon Xamidovich

Biologiya fanlari doktori, professor

Yoqubova Sitora Azizjon qizi

Farg'ona davlat universiteti magistranti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.6522079>

Annotatsiya. Mazkur maqola, Farg'ona vodiysining noyob o'simliklar dunyosi ularning biomassasi va ularga bo'layotgan antropogen omillarning ta'siri haqida umumiy tushunchalar keltirishga harakat qilingan.

Kalit so'zlar: bioxilma-xillik, ekosistema, texnogen, urbanizatsiya, alkaloidlar, glikozidlar, antropogen omil, biomassa.

ФЛОРА ФЕРГАНСКОЙ ДОЛИНЫ И ЕЕ ОХРАНА

Аннотация: В данной статье делается попытка дать общее представление об уникальной флоре Ферганской долины, их биомассе и влиянии на них антропогенных факторов.

Ключевые слова: биоразнообразие, экосистема, техноген, урбанизация, алкалоиды, гликозиды, антропогенный фактор, биомасса.

FLORA OF THE FERGANA VALLEY AND ITS PROTECTION

Abstract: This article tries to give a general idea about the unique flora of the Fergana Valley, their biomass and the impact of anthropogenic factors on them.

Keywords: biodiversity, ecosystem, technogenic, urbanization, alkaloids, glycoside, antropogenic factor, biomass.

Kirish. Ma'lumki, Farg'ona vodiysining qulay tabiati va mo'tadil iqlim sharoiti bu yerlarda boy va xilma-xil o'simliklar, hayvonot olami namunalarini tarqalishini taqozo etadi. Lekin regionda tez sur'atlarda rivojlanib borayotgan texnogen, ijtimoiy urbanizatsiya, demografik jarayonlar tabiiy muhitga o'z ta'sirini ko'rsatmoqda. Buning obyektiv va subyektiv sabablari mavjud. Farg'ona

vodiysining geografik o`rni chuqurlikda joylashib, atrofini baland tog`lar bilan o`ralganligi atmosfera havosi sirkulyatsiyasiga salbiy ta`sir etadi. Vodiy hududlaridagi kimyoviy, avtomobilsozlik, yog`- ekstraksiya, mebelsozlik, paxta tozalash va boshqa zavodlar tomonidan atrof-muhitga chiqindilar chiqarilmoqda. Boshqa joylardagi kabi transport vositalari sonining uzluksiz oshib borishi va ulardan chiqayotgan gazlar, kimyoviy birikmalar tufayli atmosfera ifloslanib bormoqda. Shuningdek, suv va tuproq holatida ham salbiy jihatlar sezilmoqda.

Bugungi kunda o`simlik va hayvonot olami bioxilma-xilligini saqlab qolish, ulardan samarali foydalanish ham dolzarb muammolar sirasiga kiradi.

O`zbekistonda 27 ming noyob va yo`qolib ketish xavfi ostida turgan turlar mavjud – bu bioxilma-xillikni muhofaza qilishni yaxshilash ustuvor vazifa bo`lishi kerak.

Global karantinning qiziqarli "ijobiy tomoni" nafaqat musaffo osmon va kamroq ifloslanish, balki yovvoyi hayvonlarning odamlar hukmronlik qilgan shaharlar va boshqa aholi punktlariga qaytishi edi. COVID-19 bizning mavjudligimiz, harakatlarimiz va harakatsizligimiz bioxilma-xillikka bevosita ta'sir qilishini ko'rsatdi.

Ma'lumki, Farg`ona vodiysining boy va turli-tuman o`simliklar dunyosi orasida asalarilar uchun muhim ozuqa manbai bo`ladigan turli xil o`simliklar juda keng tarqalgan. Asal-shirali o`simliklarni barcha zonalarda shuningdek, hamma o`simlik qoplamlarida, ayniqsa asalarichilik yaxshi taraqqiy etgan tog`oldi va tog`li tumanlarda ko`p uchratish mumkin. Ko`chma asalarichilikda katta ahamiyatga ega bo`lgan tog`oldi zonasining asalli o`simliklaridan oqquray, kavar, shashir, chitir, sassiq kavrak va shirachlarni misol qilib keltirish mumkin. Farg`ona vodiysi xilma-xil o`simlik turlariga boy. Tabiiy o`simliklar qoplamida kiyik o`ti, tog`rayhon, burchoq, arslonquyruq, mehriyoy, zufo, gulhayri, shashir, avg`on shashir, xo`kiz tili, yo`ng`i chqa, qashqarbeda, sebarga, shirach, toshkakra, zig`irak, marmarak, mavrak, lolaqizg`aldoq, qisroq

(perovskaya), ayiqtovon, andiz, geran, jambil, issop, kendir, limon o'ti kabilar o'sadi.

Farg'ona vodiysining mashxur Shoximardon tog'larida O'zbekiston Respublikasi "Qizil Kitobi" ga kiritilgan va noyob hisoblangan muhim alkaloidlar, glikozidlarga boy bo'lgan sug'uro'ti va hiyol o'simliklari cheklangan maydonlarda uchraydi. Hozirgi vaqtda ularga salbiy ta'sir etayotgan antropogen omillar tufayli ularning tabiiy populyatsiyalari yomon holatga tushib, tiklanish jarayoni susaymoqda. Natijada ularning areallari qisqarib, zaxiralari keskin kamayib ketmoqda. Shularni hisobga olgan holda ular tarqalgan formatsiyalarda melioratsiya ishlarini olib borish va ularning yo'qolib ketishini oldini olish kerak. Ushbu o'simliklarni muhim dorivorligini hisobga olib, ularni madaniylashtirish ishlarini olib borish kerak. Bulardan tashqari vodiyning tog'li hududlarida parpi, arelquyruq, dalachoy, bozulbang, mingbarg, o'lmas o'ti kabi foydali o'simliklarning areallari ham kamayib ketmoqda. Ularni asrash va muhofaza qilishimiz zarur.

Vodiyda xilma-xil o'simliklar quyidagi daryolar havzalarida tarqalgan:

Isfara daryosi havzasida 1429, Xodja-Bakirgan daryosi havzasida 1463 tur va Shoximardonsoy havzalarida 1353 tur.

Taxminlarga ko'ra Qizilungur, Qoraungur daryolari havzasida (Farg'ona tog'i) hamda Oloy vodiysida ham 1400-1500 lar atrofida o'simliklar uchraydi. Hisob-kitoblarga ko'ra ravodiy hududlarida 500 tur atrofida chorva mollari uchun ozuqa bo'ladigan, 400 tur atrofida dorivor, 300 turdan ortiq alkaloidli, 200 turlar atrofida efirmoyli va 500 turdan ortiq asal-shirali va boshqa xomashyobop o'simliklar tarqalgan.

Shoximardon va yordon qishloqlari atrofida O'zbekistonning "Qizil Kitob"iga kiritilgan noyob va kamyob hisoblangan sug'ur o'ti (*Adonis chrysocyathus*), hiyol (*Physochlaina alaica*), Turkiston shotarchasi (*Fumariola turkestanica*), Margarita marmaragi (*Salvia margaritae*) hamda kam tarqalgan Paulsen va tukli bozulbanglar (*Lagochilus paulsenii* L. *pubescens*), Olga

sorbariyasi (*Sorbaria olgae*) uchraydi. Vodiyda cheklangan maydonlarda Markaziy Farg`ona cho`li saqlanib qolgan, bu joylarda ham 120 ming gektar qumliklar, 80000 gektar sho`rxok joylar shuningdek, to`qayzorlar saqlanib qolgan. Bu yerlarda hamda Sirdaryo vohasida talaygina turang`ilzorlar, jiydazorlar va yulg`unzorlar saqlanib qolgan.

Qumli va barxanli substratlar oq va qora saksavul, cherkez, qandim, qumuzum va quyonsuyak kabi daraxt va butazorlarni uchratamiz. Vodiyning barcha ekosistemalari kabi cho`l ekosistemi ham antropogen omillarning salbiy ta`siriga uchragan. Hozir bu yerlarda Marg`ilon va Farg`ona ekologik muammolar o`zining mavqei hatarliligi jihatdan birinchi o`rinda turadi.

Ma`lumki, odamzot bioijtimoiy mavjudot bo`lganligi tufayli uning biologik mohiyati bilan bir qatorda ijtimoiy va ruhiy mohiyatlarini saqlab qolish zarur bo`lib qoladi.

Ko`rib turganimizdek, bu muammolar tabiiy-ijtimoiy va ruhiy tadrijiy rivojlanishlarga ta`sir etib, inson salomatligini yomonlashuviga, ma`naviyatini pasayishiga va imonini susayishiga olib keladi.

Atrof-muhit tirik organizmlarining yashashi uchun normal ekologik parametrlarga ega bo`lgan chegaralar miqyosida ya`ni biosfera chegaralari o`rganiladi. Insonlarning tabiatga ko`rsatayotgan ta`sirlari aytarli katta bo`lmagan taqdirda ushbu muammo iqtisodiy muammolarga kiritilmas edi. Ya`ni tabiat har doim bizga cheksiz xizmat ko`rsatadi deb tushunilar edi. Lekin bugungi kundagi axvol shuni isbotlab turibdiki, tabiat insolarni o`ylamay, haddan tashqari ko`p ko`rsatadigan ta`sirlariga bardosh bera olmas ekan, ya`ni u o`z-o`zini qaytadan tiklab ulgura olmayapti. Demak, tabiatni har bir elementi o`zining ma`lum «sig`im chegarasiga» ega ekan.

Antropogen ta`sir bu chegaradan oshib ketsa, u yemirila boshlar ekan. Masalan: bir vaqtlar gullab yashnab turgan Tigr va Yefrat vodiylari sug`orish sistemasini noto`g`ri tuzilganligi va qishloq xo`jalik ekinlarining ko`p ekilganligi tufayli tuproq erroziyasi va sho`rlanish jarayonlari hisobiga cho`lga aylanib

qolgan. Uralsk-Volsk cho'llari xam noto'g'ri chorva boqilishi hisobiga hosil bo'lgandir. Oxirgi vaqtlarda yana shunday ekologik inqirozlardan biri Orol dengizini qurishi hisobiga uning atrofida cho'llarning kengayib, tuproqda tuz miqdorini ortib borishidir. Natijada ichimlik suvining sifati yomonlashib, turli kasallik turlari ortib boryapti. Atrof muhitning tabiiy holatini buzilishi darajasi nafaqat antropogen ta'siriga, balki tabiat elementlarining aks ta'sir reaksiyasi va xossalari ham bog'liqdir.

Insoniyatni, ayniqsa, tropik va subtropik o'rmonlar muammosi tashvishga solmoqda. U yerlarda yiliga dunyo miqyosidagi qirg'inish kerak bo'lgan o'rmonlarning yarmidan ko'pi kesib tashlanmoqda. 160 mln gektar tropik o'rmonlar vayron bo'lgan, atigi yiliga 11 mln gektar maydon tiklanmoqda. Floraning kamayib ketishi Qizil Kitob yaratilishiga sabab bo'ldi.

O'zbekistonda mavjud 4 mingdan ortiq o'simlik turlarining 10-12 %i muhofaza talab (4148 tur). Eng qimmatli tog' o'rmonlarining maydoni o'nlab marta qisqarib ketgan. To'qaylar va qayir o'rmonlari ko'plab kesib tashlangan. Tabiiy yaylovlarning maydoni 6,5 mln.ga qisqargan.

Tabiatni, shu jumladan uning ajralmas qismi o'simliklar dunyosini muhofaza qilish ayni zamonning eng muhim muammolaridan biriga aylandi. Respublikamizning xilma-xil, foydali turlarga boy, bebaxo o'simliklarini muhofaza qilish bizning muqaddas burchimizga aylanmog'i lozim. Biz faqat foydali hayvon va o'simlik turlarini emas balki, O'zbekiston hududida o'sayotgan har bir turni va yashayotgan hayvon turlarini asrab avaylashimiz va ularni kelgusi avlodlarga hozirgisidan ham a'lo darajada in'om etishimiz kerak.

Xulosa. O'simliklar dunyosi yerdagi hayotning birlamchi manbai hisoblanadi. Ular yiliga 380 mlrd.tonna organik modda hosil qiladi, buning 330 mlrd.tonnasi dengiz va okean o'simliklariga, 40 mlrd.tonnasi o'rmonlarga, 8-10 mlrd. tonnasi o'tloqlarga to'g'ri keladi. O'simliklar er yuzidagi hayotning asosi hisoblanadi. O'simliklar fotosintez jarayoni natijasida havodan karbonat angidrid gazini yutib, kislorod chiqaradi.

Farg`ona vodiysida 2000 dan ortiq gulli o`simliklar tarqalgan bo`lib, ular orasida shifobaxsh o`simliklar alohida o`rin egallaydi. Rang-barang flora va o`simliklar qoplaminig mavjudligi turlarga boy bo`lgan dorivor o`simliklar o`shini taqozo etadi. Vodiy hududlarida 276 turdorivor o`simliklar tarqalganbo`lib, ular 309 turkum va 74 oilaga mansub.

Farg`ona vodiysi dorivor o`simliklarining 422 turi (89%) xalq tabobatida va 54 turi(11%) ilmiy tibbiyotda qo`llaniladi.

Farg`ona vodiysining tabiiy o`simliklar qoplamiga tushayotgan antropogen ta`sirotlar miqyosining oshib borishi tufayli bir qancha shifobaxsh turlarning areallari qisqarib, zaxiralari keskin kamayib bormoqda. Ularning ayrimlari muhofazaga va madaniylashtirishga muhtoj bo`lib qolmoqda.

Tog`rayhon, qashqarbeda, limon o`ti, arslonquyruq kabi turlarning autekologiyasi o`rganildi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro`yhati.

1. O`zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2018 yil 12-13 iyun kunlari Farg`ona viloyatiga tashrifi davomida bergan topshiriqlari va Oltiariq tumanida kengaytirilgan tarzda o`tkazilgan majlis bayoni (PD - 187).
2. Baratov P. "Tabiatni muhofaza qilish." "O`qituvchi" 1991
3. Madrahimov A. S "Ibn Sino shifobaxsh o`simliklar haqida". Toshkent. Mehnat, 1990.
4. Xamidov G`.X "O`zbekiston foydali o`simliklarini muhofaza etish" Toshkent. "Fan" 1990.
5. Xamidov G`, Qoratoyeva Ch Farg`ona vodiysining shifobaxsh o`simliklari va ulardan samarali foydalanishga doir. " Farg`ona vodiysining o`simlik, hayvonot dunyosi va ulardan oqilona foydalanish muammolari", konf. materiallari Andijon. 1999.